



## XORIJY TILLARNI O`QITISHDA HAR BIR O`QUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUG`ULLANISH VA KO`PRIK TIL MOHIYATI

**Ismanova Odinaxon Urunbayevna**

**Qaxxorov Abdugafur Ibrohimjon o`g`li**

*Fargona Davlat Universiteti magistrantlari Lingvistika ( Nemis tili),*

**Axrorrova R.U**

*F.f.f.d Ph.D.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarning bugungi kundagi ro`li, uni o`qitishda yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatolar va ularni bartaraf etish yo`llari, ko`prik til mohiyati xaqida gap ketadi.

**Kalit zo`zlar:** Chet tillar, dars berish jarayoni, o`qish va o`qitish tizimi, individual yondashuv, noto`g`ri atamasi, ko`prik til.

**Kim xorijiy tillardan xabardor bo`lmasa, u o`z tilini ham yaxshi tushuna olmaydi**

**J W Goethe**

Inson o`z tilining ma`no mohiyatini yaxshi anglashi uchun chet tilini, bilishi insonga yaxshi yordamchi bo`ladi. Biz o`zimiz yaratgan yangi ixtiolarimizni faqat o`zimizdagina qolib ketmasdan, dunyo saxnasiga olib chiqishimiz uchun xorijiy tillar 1-yordamchi vazifasini bajaradi. Xorijiy tillar nafaqat tili o`rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, milliy madaniy boy me`rosi va an`analari haqida ma`lumot beradi, balki o`sha davlat ilmi haqida ham bilim va ko`nikmalar hosil qiladi. Chet tillarni o`rganish natijasida o`zga tilda yaratilgan asarlarni ham o`z tilingda o`qiyotgandek tushunish, asar muallifini dunyosi, fikri bilan hech qanday yordamchilarsiz gaplasha olish imkoniyati yuzaga keladi.

Bu borada Respublikamizda sezilarli ishlarni amalga oshirilayotganligi, chet tillarni isloh qilish bo`yicha kundan kunga yangi qaror va farmonlarni ishlab chiqilishi va amalda qo`llanilishi ham fikrimizning yorqin isbotidir. Shuning natijasida o`quvchilarga dars berish jarayoni, o`qitish, o`qish tizimi butunlay oldingiga nisbatan o`zgacha tarzda olib boriladigon bo`ldi.

Biz bilgan o`qish tizimida o`quvchilarning barchasi uchun bir hil topshiriq berilar edi. Tabiiyki hammada javob har xil hatto, ba`zi o`quvchilarimizda mutlaqo javob bo`lmas ham edi. Men o`z fikrimni quyidagi misol orqali tushuntirib bermoqchiman.

Tasavvur qilaylik, biz agar maymun, fil, sigir, to`ti, sichqonga bir xil topshiriq berib, ya`ni barchangiz daraxtga chiqing desak tabiiyki maymun barcha jonzotlarni ortda qoldirib birinchilardan bo`lib chiqib ketadi. To`ti uchib, sichqon ham bir amallab chiqib olishi mumkin ammo, fil va sigirga nisbatan bu topshiriq mutlaqo mumkin bo`lмаган hodisa. Chunki ular aslo daraxtga chiqsa olmaydi. Men bu bilan nima





demoqchiman. O`qituvchilar biz bilgan metodda barchaga bir hil topshiriq bergan va shu bilan birga barchaning diqqat markazida o`qituvchi bo`lgan. Faqat o`qituvchi gapirgan, vazifalarni bergan va faqat u aytganigina bajarilgan. Endi esa o`qituvchi o`quvchilarni faqat yo`naltiradi. Ularni qobiliyatiga qarab faqat individual topshiriqlar beradi. Har bir bola o`ziga berilgan topshiriq bo`yicha ishlab, uni yanada takomillashtirishga harakat qiladi. U o`zida mavjud bilimlarga asoslanib javob bera boshlaydi. Oldingiday tushunmay, hech narsa qilmay o`tirmaydi. Oson va tushunarli vazifa berilgandan keyin o`quvchida oz moz bo`lsada tushunchalar paydo bo`la boshlaydi. Eng muhimi u o`z menini o`ziga bo`lgan ishonchni kashf etadi. Yetarli javobni bera olgandan keyin darsda erkin bo`ladi, zerikmaydi. Dadil fikr yurita oladi. O`qituvchidan talab qilinadigoni ham o`quvchilarga bilim berish bilan birga ularni mustaqil bo`lishga yo`naltirish ham hisoblanadi. Yuqoridagi misol bejiz keltirilmagan . Har bir o`quvchimizni o`z dunyosidan kelib chiqib, topshiriq berishimiz kerak. Ya`ni har bir jonzotni o`ziga qarab masalan: to`tini qanotlari borligini hisobga olib- uchishni, sichqonga hos hususiyat bo`lgan kovlashni, filning gavdasiga qarab, yuk ko`tarishni, maymunga esa daraxtga chiqishni topshiriq qilib berish kerak. Shunda har biri o`z ishining moxir ustasi ekanligini amalda isbot qilib bera olishadi. Zero hayotda qobiliyatsiz insonni o`zi bo`lmaydi. Shunchaki unga to`g`ri yo`nalish kerak bo`ladi, xolos. Darslarimizda o`quvchilarimizni xech narsa qilmay, tushunmay, zerikib o`tirishiga aslo yo`l qo`yib bera olmaymiz. Bizda barcha birday ishlashi lozim. Rag`bat ham albatta shunga yarasha bo`lishi kerak.

Mening fikrimcha o`quvchilarimizning ayniqsa 12 yoshgacha bo`lgan bolalarning javoblariga noto`g`ri degan so`zni ishlatmasligimiz kerak, chunki biz bu gapni bir bor aytsak, ikkinchi marta u o`sha noto`g`ri javobni ham bermay qo`yadi. Butun dunyo psihologlarining fikriga ko`ra, kichik yoshdagi bolalar psihologiyasida jazo degan so`zni o`zi yo`q. Ular faqat rag`batni biladi va undan ilhomlanadi, kuch va quvvat oladi. Shundan kelib chiqib, garchi berilgan savolga javob noto`g`ri

bo`lsada, o`quvchilarni noto`g`ri javoblarining o`zidan terib to`g`ri javobni chiqarib berish o`qituvchining bugungi kundagi eng dolzarb vazifasidir. Bu erda o`quvchida avvalo erkin fikrlash shakllanadi. Qolaversa boshqa o`quvchilar ham baxsga kirishadilar. Eng muhimi ular gapira boshlaydilar. Xorijiy til o`qituvchisining birinchi galdag'i vazifasi ham o`rganilayot tilda erkin va ravon gapirtirish. O`quvchim xato qilib bo`lsa ham gapiryaptimi, demak yutuq meniki. Men uni xato qilgan bo`lsada gapirtira oldimmi, sekin asta bexato gapirishga ham o`rgata boshlayman.

Chet tillarni o`rganishda ko`prik til degan atamaga biz ko`p duch kelamiz. Buni har kim har xil tushunadi. Eng avvalo ko`prik til nima ekanligini biroz eslab olamiz. Ikki suhbatdoshlarni agar ulardan biri o`zga til vakili bo`lsa, bir birini tushunishi uchun kerak bo`lgan til ko`prik til deb yuritiladi. Ko`prik til shu jarayonda juda zarur. Ammo til o`rganish jarayoni bu butunlay boshqa narsa bo`lib, bu borada ko`prik til ko`p ham ahamiyatli deb hisobhanlanmaydi. Kimningdir nazarida xorijiy tilni o`rganishda ko`prik til zarur. Kimdir bunga qarshi. Menga qolsa, til o`rganish jarayonida ko`prik til





faqat asosiy qoidalar uchungina kerak. Bu nimaga? Qoida zarur, u qat'iy, o'zgarmaydigon, eng kerak jarayon bo'lib, til o'rganayotgan o'quvchini behato gapira olish ko`nikmasini yaratib beradi. Qolgan barcha narsa: salomlashish, bir biridan xol ahvol so'rash, savollar berish, berilgan savollarga javob berish (to`g`ri bo`lsa bo`lmasa), xattoki tushib ketgan ruchka haqida ham o`quvchi tushunsa, tushunmasa farqi yo`q xorijiy tilda gapirish kerak. Imo ishoralar, mimika asosiy ish qurolimiz bo`lishi kerak. Chunki tinglovchilarimiz biz aytgan gapni bugun tushunmaydi, ertaga tushunmaydi, lekin indinga tushuna boshlaydilar. Shu o`rinda men yana bir ayni haqiqatni aytib o`tmoqchiman. Agar biz barchaga tushunarli bo`lsin deb, faqat ko`prik tildan foydalanib gaplashaversak, u holda o`rganilayotgan til haqida bizda faqat tushunchalar hosil bo`ladi. Til ko`nikmasi shakllanmaydi, qoidalarni puhta o`rgatamiz, ammo bolalarni soqov qilib qo`yamiz. Yana bir tasavvur. Ikkita ona tovuq bir kunda tuhum qo`yishdi. Birinchisi nihoyatda e`tiborli, ikkinchisi ozgina beg`amroq, yoki haddan tashqari e`tiborli. Tuhumlar yorib chiqish vaqtiga yetganida ularning biridan doimgiday, ikkinchisidan esa palag`da tuhum yetilib chiqdi. Shu o`rinda biz buni til o`ragnish bilan ham bog`lashimiz mumkin. Har bir ishni me`yorida bajarsak, kutgan natijalarimizga erishish imkoniyati yanada ko`payadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy tillarni o`rganish orqali o`quvchilar nafaqat tili o`rganilayotgan mamlakat vakili bilan bevosita muloqot qilishi, uning fikrini tushunishi balki o`z fikrini mustaqil bayon qilish imkoniyatini ham yaratib beradi. Biz chet tillari orqali o`zimizni dunyoga tanitamiz va dunyoda sodir bo`layotgan voqeа va hodisalar orqali yanada yaxshiroq tushunchalarga ega bo`lamiz. Barcha xorijiy til o`qituvchilaridan esa bu borada juda katta matonat talab qilinadi. Faqat chet tillarni to`g`ri o`rgatishni yo`lga qo`yishimiz kerak . Yuqorida aytib o`tilganday, til o`rgatish juda muhim, murakkab, mas`uliyatli jarayon. Biz xorijiy tillar o`qituvchilari shunday ishga bel bog`ladikmi, endi uni to`g`ri yo`lga qo`ya olishimiz kerak. Shundagina ko`zlagan maqsadimizga osonroq, qolaversa samaraliroq yetishamiz.

